

56. Sonlarni bo'laklab ayirish

kamayuvchi
ayriluvchi
ayirma
bo'laklab ayirish



	3	9
1	2	8
6	4	7



Agar ayrıluvchining birliklari soni kamayuvchining birliklari sonidan katta bo'lsa u holda:

- ayriluvchini biri kamayuvchining birliklari soniga teng bo'lgan ikki sonning yig'indisi ko'rinishida ifodalaymiz;
- kamayuvchidan bir qismini ayiramiz;
- qolgan qismini 10 dan ayiramiz.



$$13 - 9 = (13 - 3) - 6 = 10 - 6 = 4$$

3 6

1. Yomg'irdan so'ng hovlida 15 ta katta ko'lmak paydo bo'ldi. Ikki kundan so'ng bolalar maydonchasidagi 5 ta hamda yo'l bo'yidagi 4 ta ko'lmak quridi.
Nechta ko'lmak quridi? Hovlida nechta ko'lmak qoldi?
Shu 2 kun davomida ob-havo qanday bo'lganini aytish mumkinmi?



2. Hisoblang.



$$16 - 7 = (16 - \underline{\quad}) - \underline{\quad}$$

6	1
1	



$$12 - 6 =$$

1	2
6	1
1	

56. Sonlarni bo'laklab ayirish



3. Ahmad so'nggi 15 kun davomida faqat bir hafta qor yog'ganini va qolgan kunlari havo iliq bo'lganini kuzatdi. Shu vaqt oralig'ida necha kun havo iliq bo'lgan?

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--



4. Ahror o'z qo'li bilan "mevali muzqaymoq" tayyorladi. Hammasi bo'lib 18 ta ulush chiqdi. Agar u olchadan 9 ta ulush muzqaymoq tayyorlagan bo'lsa, unda shaftoli ta'mi bilan necha ulush muzqaymoq tayyorlagan?



--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--



5. 19- dekabrda tun 15 soat, kun esa 9 soat davom etdi. Tun kundan necha soatga ko'proq davom etgan?

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--



6. Jadvaldan ba'zi sonlarni o'chirishdi. Bu jadvalni bo'laklarga bo'lishdi. Bo'sh kataklarga qanday sonlarni yozish kerakligini toping.

1	2			5					10
		13			17	19			



7. Rasmda mana shunday ketma-ketlikni toping.

